

Ona yurti - oltin beshigi

TONG yulduzi

№42-43
(66427-66428)
2003 yil
3 noyabr
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan

Aziz o'quvchilar! Birinchi chorak ko'ngildagidek yakunlandimi? Unday bo'lsa navbat TA'TILGA!

O'zining o'lmas asarlari bilan o'zbek tiliga haykal o'rnatgan hazrat Navoiy to'g'risida Mirzo Bobur: «Alisherbekning mijozi nozuk bila mashhurdir. El nazokatini davlatning g'ururidan tasavvur qilur edilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozuk mijoz ekandur», degan edi / «Boburnoma», 153 bet/. E'tibor beryapsizmi, avom xalq Navoiy boy-badavlat zot bo'lgani tufayli «nozuk, nazokatli» deb o'ylaydi. Biroq, Boburshohning ta'kidlashicha, Alisherbek Samarqand shahrida - Ahmad Hojibek madrasasida tahsil ko'rib yurgan talabalik yillarida ham «ushmundoq nozuk mijoz» bo'lgan ekan. Ya'ni, maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro sharofati bilan beqiyos mol- dunyo orttirgandan so'ng, fe'l-atvorida o'zgarish ro'y bermaydi, balki ul zoti sharif jibilliy-tug'ma nazokat sohibi bo'lganlar. Odatda, nazokat latifa ayollarga xos xususiyatga o'xshaydi, go'yo erkak kishi yoki o'g'il bolalar dag'alroq, qo'polroq bo'lishi kerak. Aslida esa, nazokat inson zotiga xos bo'lgan xususiyat bo'lib, kishining yurish-turish,

harakat va qiliqlaridagi latofat, odob-axloq ham nazokat

TILIMIZ - IMONIMIZ

Muborak!

ayni chog'da bu tilda so'zlashadigan kishilar odob-axloq borasida ham to'kis bo'lishi lozim ekanini mudom unutmaslik kerak.

Istiqlol arafasida muhtaram Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbek tili maishiy muomala vositasidan milliy davlatchilikning muhim belgisi sifatida e'tirof etildi. Ajabki, hatto Navoiy zamonida

hisoblanadi.

Boz ustiga, mol-dunyoiga ishonib, kerilib yoki karillab yuradigan kimsalar nazokatdan mosuvo bo'ladi.

Demak, biz hazrat Navoiydan nafaqat o'zbek tilining inja qirralarini o'rganamiz,



ham o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilmagan edi, u paytlarda an'anaga ko'ra barcha davlat ishlari fors tilida yuritilardi. Bizningcha, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi buyuk ajdodlarimizning ruhi poklariga ko'rsatilgan ehtirom nishonasidir.

Inson dunyoni til vositasi bilan teran anglaydi, bilimlar ham til vositasi bilan o'zlashtiriladi. Hatto iymon-e'tiqod ham qalbimizga til bilan muhrlanadi.

Zero, iymon sobitligi tilimizga munosabatda iqqol namoyon bo'ladi. Tilga e'tibor-elga e'tibor degan maqol bejiz aytilmagan. El-yurtni sevgan kishi tilni avaylab-asraydi, uni yot unsurlardan tozalaydi. Til pokiza va go'zal bo'lishi kerak. Pokizalikka, go'zallikka erishmoq uchun eng avvalo, kishi qalbidagi tug'ma nazokat, chiroyli estetik tuyg'ular doimo tarbiyalanishi darkor. Taniqli shoir og'amiz Miraziz A'zam iborasi bilan aytganda, «tilimni bermasman borim bersam ham!» deb baralla ayta oladigan fidokor fuqaro bo'lmoqlik ham qarz, ham farzdir.

Tengdoshingiz Shoyadbek Akromov Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 1-maktabning 9- sinfida o'qiydi. Fanlardan baholari o'rtacha bo'lsa-da, ammo sportdan doimo a'lo.

QORA BELBOG' SOHIBI Shoyadbek olti yildirki,

Parkent sport maktabidagi taekvondo to'garagining faol a'zosi. Murabbiy Dima Kim rahbarligidagi mashg'ulotlarga jiddiy qaraydi. Shu boisdan u ko'plab bellashuvlar, musobaqalar g'olibi.

Yaqinda viloyatda «Obod mahalla yili» munosabati bilan Mirzaakbar Mahmudov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan turnirda ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida

Sog' yurak - tog' yurak


bo'lib o'tgan yosh taekvondochilar o'rtasida esa birinchi o'rin nasib etdi.

Shoyadbek vaqtning qadriga etadi. Shuning uchun ham uning bo'sh vaqti yo'q. Maktabdan bo'shadi deguncha, taekvondo mashg'ulotlariga shoshiladi. Bundan tashqari ota-onasining dehqonchilik ishlariga yordam berishga ham vaqt topadi.

- Jismonan kuchli raqibni tan olish ham katta jasorat,- deydi Shoyadbek.- Qachonki, sportchi maydonga tushishga ruhiy jihatdan ustun bo'lsagina kurashda g'alaba qiladi.

Qora belbog' sohibi Shoyadbek bugungi kunga qadar ikkita bronza, bitta kumush medal egasidir.

Haqiqiy bellashuvlar hali oldinda. Sportning eng yuqori pog'onalariga chiqish uchun tinimsiz kurashadi. Biz bunga ishonamiz.



Alisher ABDULLAJONOV,

Suratda: Shoyadbek Akromov mashg'ulot paytida.

Odatda kutubxonalardagi kamnamolikning sababini yoshlardagi loqaydlikda deb bilishadi. Lekin o'quvchilar kitobxonlikka mehr qo'ysalaru,

FOYDAMI YOKI ZARAR?..

kutubxonalardagi kitoblar pulli bo'lsa-chi? Xo'sh, bunday vaziyatda qanday yo'l tutishimiz lozim?

Qayerda pulli kutubxona bor ekan, deysizmi? Toshkent viloyatining Parkent tumaniga keling, o'zingiz ko'rasiz.

Bir kuni katta tanaffusda dugonam Dilduzaga yuzlanib:

-Dilduz, yur, kutubxonaga boraylik, yangi kitoblar kelganmish,-dedim.

-E, nima deyapsan, avval borib o'sha yangi kitoblarning kuniga necha pul turishini bir so'rab kelgin. Oyimning bergan pullarini tushligimga arang yetkazyapmanu...

Dugonamning so'zlariga ishonmay, o'z ko'zim bilan ko'ray deb kutubxonaga oshiqdim. Darhaqiqat, kutubxonachi opaning aytishlaricha, kitobni bir kunga olish uchun 100 so'm pul to'lash lozim ekan. Agar kitob o'quvchining qo'lida ikki kun qolib ketsa, 200 so'm va hokazo miqdorda pul to'lanarkan. Sababini surishtirsam, kitoblarni tezroq o'qib, qayta topshirishingiz uchun shunday yo'l tutyapmiz, deyishdi...

Hozirgi kunda yoshlarni kitobxonlikka jalb etish usiz ham dolzarb muammo bo'lib turgan bir paytda, bu kabi «yo'l tutishlar» aksincha, o'quvchilarni kutubxonalardan yiroqlashtirib yubormasmikan? Ustozlarimiz, kutubxonachi opalarimiz, qolaversa, siz aziz tengdoshlarimning bu boradagi fikr-mulohazalarini bilishni istardim.

Kattalar, e'tibor bering!



Sadoqat DADAYEVA,

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 1 - o'rta maktabning 9- «B» sinf o'quvchisi.

NOMIGA MUNOSIB MAHALLA

Men yashaydigan mahalla «Guliston» deb nomlanadi. Nomiga yarasha gulistonga aylanayotgan mahallamni har qancha maqtasam ham oz.

Ko'chamizda 24 ta xonadon joylashgan. Shulardan oltitasi o'zbek xonadoni hisoblanadi. Asosan turli millat vakillaridan iborat oilalar yashasa-da, ammo biz bir-birimiz bilan inoq va ahil bo'lib yashaymiz.

Mahallamizda «Quyuncha» nomli bolalar bog'chasi joylashgan. Shu bilan birga katta bog' ham barpo etilgan. Bu yil bog'dagi ko'chatlar sonini ellik foizga ko'paytirdik.

Mahallamizda poyezd temir yo'li o'tgan. Bu yo'l orqali har kuni qanchadan-qancha odamlar o'z manzillariga yetib boradilar.

Yana mahallamizdan katta ariq suvi oqib o'tadi. Bu suv doimo toza. Chunki biz suvning toza bo'lishi uchun doimo harakat qilamiz-da.

Ana shunaqa gaplar. Men yashaydigan mahalla o'z nomiga

Maktublar, maktublar, maktublar...

munosib.

O'tkirbek MIRZAOBIDOV,

Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 20- umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisi.

HAYOT YO'LIDAGI HAMROHLAR

Hayot uzun bir yo'lga o'xshaydi. Bu yo'l yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, mehribonlik va beshafqatlik ko'chalaridan iboratdir.

Ota-ona mana shu yo'lidagi eng sodiq hamrohlardir. Ular o'z farzandlarini qo'lidan tutib, tekis va ravon yo'l sari boshlaydilar. Bu yo'l bolalik deb ataladi. Bolalik xuddi gulning g'unchasiga o'xshaydi. Shunchalar pok, shunchalar go'zal, shunchalar nozik va beg'ubor.

Ota-ona o'rtasidagi sadoqat ham farzandga katta ta'sir ko'rsatadi. Agarda ota-ona bir-biri bilan ahil va mehribon bo'lsa, farzand ham atrofdegilarga nisbatan shundayin muomalada bo'ladi. Axir xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bor-ku.

Farzandlarga eng kerakli narsa bu - e'tibordir. U o'z ota-onasining e'tiboriga muhtoj bo'ladi. Gohida ota-ona o'z muammolari bilan qolib, farzandiga vaqt topolmay qoladi. Shunda begonalar unga e'tibor qiladi. Yuqorida aytganimizdek, ular yomonlik ko'chalariga kirib qoladi.

Aziz yoshlar, keling, o'zimizni o'zimiz boshqarishni o'rganaylik. Hayot yo'lidagi eng sodiq hamrohlarmiz bo'lmish, ota-onamizning har bir so'zlariga quloq tutaylik. Ana shunda biz yurtimiz olqishiga, ota-onamiz quvonchiga sabab bo'lamiz.

Mukarram ZOKIROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'ati litseyi o'quvchisi.

AGAR ILOJI BO'LSA...

«Agar iloji bo'lganida edi, yana maktabda o'qigan bo'lardim. O'qiganda ham yaxshi o'qirdim». Bu gaplarni kattalardan takror va takror eshitamiz. Eshitamizu, ammo e'tibor bermaymiz.

Yaqinda yo'lida ketayotib, bir kekxa otaxonga ko'zim tushdi. Men ularga darrov salom berdim. Otaxon ham mening salomimga mehr bilan alik oldilar. «Maktabga ketayapsizmi, bolam», dedilar. Men «ha» deb javob berdim. «Bolam, davringiz keldi, yaxshi o'qing, keyin menga o'xshab pushaymon qilmang. O'z paytida men o'qimadim. Hozir har qancha urinmay, buning iloji yo'q», dedilar-da, o'z yo'llari tomon asta-asta yurib ketdilar.

Sinfga kirganimda ham otaxonning gaplari qulog'im tagida jaranglayverardi. Ammo ayrim o'quvchilarning bo'sh vaqtlari bekor o'tayotganidan, dars tayyorlamay,

o'qituvchini ham, ota-onalarini ham bezor qilishayotganidan xafa bo'ldim.

Aziz tengdoshlar! Keling, har bir ishni o'z vaqtida bajaraylik. Bizning ayni paytdagi vazifamiz - o'qish va o'rganish ekanligini unutmaylik.

Aziz MAMATQULOV,

Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 3- iste'dodli bolalar maktab-internatining 9- «B» sinf o'quvchisi.

«NAFOSAT» DO'STLASHTIRDI

Ustoz va murabbiylar bayrami arafasida tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan o'tkazilgan «Nafosat» ko'rik-tanlovida qatnashib, birinchi o'rinni egallagandim. Yaqinda ana shu tanlovning shahar bosqichi bo'lib o'tdi. Bu tanlov avvalgisidan ham jiddiroq o'tdi. Chunki uning ishtirokchilari xuddi men kabi tumanda eng yaxshi yosh qalamkash deb topilgan o'g'il-qizlar edi-da. Tadbirda qatnashgan Metodik birlashma markazi direktori Munavvar Mannopova, «Til va adabiyot ta'limi» jurnali muxbiri O'g'iloy Mavlonova kabi bir qator mehmonlarning oldida ijodimizdan namunalar o'qishning ham o'zi bo'lmadi.

Tanlov so'ngida xay'at a'zolari g'oliblarning nomlarini e'lon qilishdi. Uchta birinchi o'rindan bittasi maktabdoshim Dilafro'z Usmonovaga nasib qilganini ko'rib, juda quvondim. Uchta ikkinchi o'rin esa Dilrabo Do'stqobilovaga, menga va Umid Elmurodovga nasib etdi.

Bunday tadbirlar tez-tez o'tkazib turilishini istardim. Shunday tanlovlar bois ijodkor do'stlarim safi yanada kengayishiga aminman.

Mahmudjon AZIMOV,

Toshkentdagi 169 - maktabning 7 - «G» sinf o'quvchisi.



Men bu yil Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 77- maktabning 9- sinfini yakunladim. Hozirda Toshkent yuridik kollejining talabasiman.

Men bo'sh vaqtlarimda she'r, hikoya va qatralar yozishni juda yaxshi ko'raman. Yaqinda mening «Tilsim» deb nomlangan kitobim nashrdan chiqdi. Bundan juda xursandman. Buning uchun barcha ustozlarimga rahmat demoqchiman.

Aziz tengdoshlar, sizning e'tiboringizga ayrim ijod namunalaringizdan havola qilaman.

Tengdoshlaring ijodi

Men uni ko'p kuzataman. Bo'ylari novcha, qo'llari uzun-uzun. Qimmatbaho bo'lmasa-da, ozoda kiyinadi. Hovlidagi qizlar- tengdoshlaridan dadil.

- Bir, ikki, uch, - deb ko'ptokni yerga ursa, balandga sakraydi. Chillakni o'g'il bolalarday qarsillatib otadi. Sakraganda mayda o'rilgan sochlarining qo'ng'iroq uchlari silkinib-silkinib ketadi. Nazarimda, kun bo'yi u hammadan kattaga, hammaning onaboshisiga o'xshaydi.

Kechqurun quyosh uyiga yumalayotganda dadalar avtobusda, mototsikl, mashinalarda qaytishadi. Qizchani tizzasidan keladigan qizaloqlar: «Dada» deb otasining quchog'iga otulishadi. Kimdir qo'g'irchoq, kimdir bir hovuch konfet olib, dadasining qo'lidan ushlab, uyiga kirib ketishadi. O'sha qiz esa bir chekkada turib qoladi. U hech kimni kutmaydi, hech kim kelmasligini biladi. U o'sha lahzalarda hamma- hammadan kichrayib qoladi.

JON ICHRA JONSAN

Tikaning ko'ksingga tumorday osdim, Toshing, tuprog'ingga labimni bosdim, Ismingni oylarga, soylarga yozdim, Jon ichra jonimsam, O'zbekistonim.

Ganjins ang sandig'i qadimingdadir, Habibing, mahbubing, nadimingdadir, Bugun otgan erkin odimingdadir, Jon ichra jonimsam, O'zbekistonim.

Hizr nazar qilgan nazarkardasan, Hech muhtoj bo'lmading, zo'ru marda san, Ko'zmunchoq bo'layin, kirma darda san, Jon ichra jonimsam, O'zbekistonim.



Muyassar HAYDAROVA.

Uchrashuv

Aziz o'quvchilar! Barchangiz yoshligingizdan o'z orzularingizga yetishishni istaysiz. Tengdoshlaringiz orasida katta bo'lsam jurnalist bo'laman, oynaiahonda ko'rsatuvlar olib boraman, deb niyat qilganlar ham borligi shubhasiz. Bizning tahririyatga ham qo'llarida o'zlari yozgan she'r, maqolalarini ko'tarib keluvchilar son-sanoqsiz. Ularning aksariyati jurnalist bo'lishni orzu qiladilar. Qanday qilib tajribali, mohir jurnalist bo'lish kerakligi haqida bizga juda ko'plab savollar berishadi.

Ushbu savollarga javob olish uchun O'zbekiston televideniya sinig «Assalom O'zbekiston» ko'rsatuvida ish olib borayotgan jurnalist Xasanboy Sattorovga murojaat qildik:

-Jurnalistlik kasbini egallash, mohir jurnalist bo'lish uchun bolalikdagi orzular yetarli, deb o'ylaysizmi?

-Bolalikdagi qiziqish insonni kelajakda o'z kasbining mohir ustasi, zo'r mutaxassis bo'lishiga sabab bo'ladi. Lekin shu orzular bilan cheklanib qolmaslik lozim, aks holda orzular olamida uchib yurib maqsadga yeta olmaslik holatlarini ham kuzatish mumkin. Jurnalist bo'lish uchun esa faqat orzu bilan ish bitmaydi. O'quvchi maktab davridanoq ko'p o'qib izlanishi, maqolalar yozib, mashq qilib turishi kerak. Yozgan maqolalari matbuot orqali yoritilsa yana ham yaxshi bo'ladi, deb o'ylayman.

-Bolaligingizdagi orzularingiz ushalganmi?

Olti yoshidan maktabga borgan turk qizi Sharifaxonim Xalidova o'zbek qizlari bilan tezda til topishib ketdi. Sababi, uning bolaligi o'zbek mahallasida o'tidi-da. Fanlarni o'zlashtirishga qiyналганida esa unga akasi - Eliver va opasi Nargiza yordamlashdi. «Baji»ga, ya'ni o'zidan bir yosh katta opasi Nargizaga o'xshashni xohlaydi. Yozgan she'rlarini mazza qilib eshitadi. Mening qo'limga ham opasining she'rlaridan tutqazdi. Bundan tashqari uning tirishqoqligi yu mehnatsevarligini qadrlaydi.

Ayni paytda Sharifaxon Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi 36-maktabning 9-sinfida o'qiyapti. Eng sevib va qiziqib o'rganayotgan fani - ingliz tili. Buning uchun ustozlari - Nargiza opa va Boboxo'jayevadan



MAKTABDA SPORT ZALI BO'LMASA...

cheksiz minnatdor. Shunday mehribon va talabchan ustozlari borligidan juda xursand.

-Maktabimizda iqtidorli o'quvchilar talaygina,- deydi Sharifaxon. - Ulardan Shahnoza Nizomova, Lola Ochilova, Nargiza Xalidova kabilar a'lo o'qish bilan birga, jamoat ishlarida ham faol.

Biroq maktabimizda sport zali yo'q. Maktabga Abduxalil aka Umaraliyev yangi direktor bo'ldilaru, sport zali va bayram dasturlarini namoyish etish uchun

alohida zal qurish rejasini ko'rib chiqdilar. Yaqinda sport zalini qurish ishlari amalga oshsa ajabmas.

Maktabda sport zali bo'lmasa-da, jismoniy tarbiya darslarimiz sport maydonchamizda juda qiziqarli o'tadi. Men ham sportga qiziqaman. Ayniqsa, tennisga. Bo'sh vaqtlarimda dadam bilan tennis o'ynayman.

Biroq charchagan bo'lsam, buvajonim suhbatlarini eshitib, dam olaman. Ular savob va gunoh ishlar, yaxshilik va yomonlik haqida ko'p voqealarni gapirib beradilar. Baxtimizga umrlari uzoq bo'lsin.

Buvajonimdan eshitgan yaxshi gaplarni eng yaqin dugonam, partadoshim Komilaxonga gapirib beraman. Men u bilan har kuni birgaman. Birga dars tayyorlaymiz, maktabga boramiz, birgalikda shirinliklar pishiramiz. Kelgusidagi orzularimiz, rejalarimiz bilan sirlashamiz.

Ha, Sharifaxonning orzulari bisyor ekan. U kim bo'lishidan qat'iy nazar,



o'qishga kirdim. Kunduzi ishlab, kechqurun o'qiy boshladim. 2-kursdan boshlab televideniya ga ishga kirdim. Birinchi ko'rsatuvim «Men xorijda o'qiyman» deb nomlangan. «Bolalar va o'smirlar» tahririyatida ham ishlaganman.

-Yaqinda «Yoshlar ovozi» ko'rsatuviga lavha tayyorlayotgan yigitchaga: «TVda ishlash uchun nima zarur» deya savol bersam, «Tank» zarur deb javob berdi. Haqiqatan shundaymi?

-«Tank» deganda tanish-bilishni nazarda tutgan bo'lsa, bu fikrga qo'shilmayman. TVda jurnalist bo'lish uchun avvalo AQL, IQTIDOR va FIKR zarur. Hozirgi ayrim yoshlar mikrofonni orzulab, ikki kunda mashhur bo'lgisi keladi. Yo'q, mashhurlikka erishish uchun ter to'kib mehnat qilish lozim. Mikrofonni mashhurlik uchun orzu qilganlar hech narsaga erisholmaydilar. TV xodimlariga nazar solsangiz, ko'pchiligi bu kasbga o'z mehnatlari, peshona terlari bilan erishganlar.

-Yosh va bo'lajak jurnalistlarga tilaklaringiz?

-O'z mustaqil fikrlariga ega bo'lishlarini, ustozlari o'gitlariga amal qilib, yetuk jurnalist bo'lishlarini tilayman.

-Samimiy suhbatigiz uchun rahmat!

Gulyuz VALIYEVA suhbatlashdi.

QISHLOG'IM

Qishlog'imda ko'p juda, Bepoyon, keng dalalar. Yetishtirilar unda, Bug'doy, arpa, paxtalar.

O'sar oppoq paxtalar, Keng, go'zal dalalarda. Ochilganda chanoqda Ayni tong pallalarda.

Oltin qo'lli insonlar Terib olishar uni. Shundan quvnoq, shod o'tar, Qishlog'im har bir kuni.

Bu qishloq insonlari, Juda mehribon bari. Barchasi intilishar, Buyuk kelajak sari.

Qishlog'imda hosil mo'l, Hech ko'z tegmasin unga. Paxta, bug'doy, arpalar, Bari tengdir oltinga.

Quyoshi botmas yurtning Har bir hududi go'zal. Ozod yurt xalqi bunda O'zin eng baxtli sezar.

Nargiza XALIDOVA

«SOS»- O'ZBEKISTON BOLALAR MAHALLASI

Vatan ostonadan boshlanadi

Ushbu mahallaga kirishingiz bilanoq, o'zaro o'ynab yurgan uch yashar bolajondan to yetti, sakkizinchi sinf o'quvchisigacha, millati turli-tuman bo'lgan har bir bola «Assalomu alaykum», deyishadi.

Shunda biram ko'nglingiz ko'tariladi-ki, asti qo'yaverasiz. Keyin qiziqib nimalarnidir so'ragingiz kelsa, sizga yaxshi suhbatdosh bo'lishadi. Kerak odamni oldiga «Sizga mehmon keldi», deb darrov qo'lingizdan ushlab ham olib borishadi. Sochlari malla, ko'zlari ko'm-ko'kkina bo'lgan kichkintoylar ham o'zbek tilida biyron-biyron gapirishlarini eshitib yana va yana gapga solgingiz



O'ZBEK TILIM

O'qib, uqiyapman ulg'aygan sari,
Moziyni ko'raman kitob qatidan.
Ma'nolar quyular ongu shuurga,
Shunda masrurdirman anglash baxtidan.
Shukrona qilaman o'zligim uchun,
Go'yo mehvariga sig'maydi qalbim.
O'tmishim, bugunim va ertam ila,
Abadiy rishtadir alloma tilim!
Xalqimdek xokisor va juda yuksak,
Har lahja, shevada sayqallar topgan.
Barhayot, navqiron onajon tilim,
Sen o'zing shubhasiz yaxlit Vatanim!

kelaveradi. Bu m a k o n d a h a m m a O'ZBEKCHA gaplashishadi. Ona tilimizga bo'lgan ehtirom tengdoshingiz Feruzaning mana bu she'rida ham o'z ifodasini topgan:

Hurmatli o'quvchi, men sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan tengdoshingiz FERUZA ERGASHEVA 11- sinf o'quvchisi. U Respublikamizda ilk bora tashkil etilgan «SOS - O'ZBEKISTON BOLALAR MAHALLASI» ning eng to'ng'ichi. O'ndan ortiq xonadonlarni qamrab olgan bu ajabto'vur, ertaknamo tarzda qurilgan uylarda uning o'nlab uka va singillari mehribon onajonlari, xolajonlari ardog'ida o'sib ulg'aymoqda.

Bu mahallaning o'ziga xos kichkintoylar uchun oromgohi, bog'chasi ham bor. Bu yerdagi o'quvchi bolalar esa Mirzo Ulug'bek tumanidagi 49- maktabning o'quvchilaridir. Ular bu maktabda ikki smenada o'qishadi. Birlari kelishsa, birlari ketishadi... Yana umuman bo'sh, bekorchi vaqtlari yo'q. Maktabda ikkinchi smenadagi o'qishdan kelishgandan keyin, bog'chaning katta zalida reja asosida olib boriladigan to'garak mashg'ulotlariga qatnashishadi.

Qanday to'garaklar borligiga qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a? Ha. Tushunib turibman... Bu yerda rus tili, ingliz tili, adabiyot saboqlari o'tkazilib boradi. Hikoyamni boshida nima uchun aynan Feruzadan gap boshlaganim bejiz emas... Uning faqat mahallaning eng katta bolasi ekanligi dastlabki sabab bo'lsa, ikkinchi sabab uning ijodidir.

Mahalla rahbariyati ham, onajoni ham tez-tez uqitirib turishadi-ki, «katta farzand keyingilariga namuna, o'rnak bo'lishi kerak», deb. Feruza shunga intilmoqda.

U darsdan keyingi hamma mashg'ulotlarga jon-dili bilan qatnashadi, oliy o'quv yurtiga kirishga astoydil niyat qilgan. Kichkina sinfda o'qiydigan uka-singillari ba'zan uy vazifalariga qiynalishganda unga murojaat qilishadi. U opa sifatida iloji boricha tushuntirishga harakat qiladi. Shunda ular zavqlanib: «Eh, qanday yaxshi, siz kattasiz, hamma narsalarni bilib olgansiz. Men sizdek yuqori sinfga o'tganimda shunaqa bo'laman-a?...» Feruza bundan rosa ham xursand bo'lib ketadi. Va, o'z vaqtida bu unga bo'lgan ishonch, hurmat, mas'uliyat yuklashini yaxshi tushunadi.

Eng muhimi, mahalladosh uka-singillari bilan dili bir, tili yagona! Millati har turli bo'lsa-da, ular bir oiladek.

Ha, ha, ajablanmang. Igor, Sasha, Oksana, Dasha, Barno, Zarina, Dilfuza, Barchinoy, Rivojiddin... Eh-he, sanayversak bu nomlarni ko'plab aytishimiz mumkin. Lekin, bu bolalarning millati rusmi, o'zbekmi, tojikmi, ukrain. Yuqorida ta'kidlaganimdek, gaplari O'ZBEKCHA. Yaqindagina Feruzaning tug'ilgan kuni bo'ldi. Atrofidagi shuncha mehribonlarining iliq, samimiy so'zlarini eshitib, Feruzaning ko'ngli osmon qadar ko'tarildi va ilhom kelaverdi. O'zi qiziqib, adabiyot to'garagiga ikki yildan beri a'zo bo'lib, she'r yozishga mashqi kelib qolgandi-da.

Marhamat, siz ham o'qib ko'ring-a...

-3- «D» sinfida o'qiyman. Yuring, bizning uyga ham kirasizmi? Uyim ham shu yerda.

-Yo'q, mayli, ovora qilmay qo'ya qolay. Shunchaki sizlar bilan gaplashmoqchi edim.

Maktabda 1-smenada o'qiyasizlarmi?

-Ha, hozir hovliga ukalarimni ozgina o'ynatgani chiqqandim. Keyin opalarim kelsa dars tayyorlayman.

-Nima, o'zingiz bajara olmasizmi?

-Qila olaman. Lekin, so'raydiganlarim ham bor edi-da.

-Yana kimlar bilan gaplashmoqchisiz? Yuring, men o'zim tanishtiraman. Bizni mahallada bolalar ro'sa ko'p.

-Ha, ko'rayapman. Bilaman. Boshqa millatdagi bolalarni hammalari o'zbek tilida gapirishni bilishadimi?, deya sinchkovlik bilan bergan savolimga Dasha moviy ko'zlarini katta-katta ochgancha, ajablanib, «Ha, nima, ishonmaysizmi?» desa bo'ladimi.

-O'zbek tilida o'qishga ham qiynalmaysizlarmi?-so'rayman yana undan.

-Yo'q. Mahallamizda o'zimizni kutubxonamiz bor. Unda har xil ertak, she'r kitoblar bor. O'zimizga ham mahallamiz rahbarlari ko'p-ko'p kitoblar sovg'a qilishgan. O'qib chiqqanmiz.

Men yana mahalla bolalarining ko'plari bilan suhbatlashib mazza qildim. Har turli millat farzandlari o'zbekcha gaplashish qanchalar zavqli ekanini dil-

dilidan his qildim.

Odatlarimizga hurmat, tilimizga e'tibor ruhida ulg'ayayotgan «SOS- O'zbekiston bolalar mahallalari» bolalaridagi fazilat va yurtimizda yashayotgan boshqa ko'pchilikka ibrat bo'la olishini o'ylab qoldim va qulog'im ostida faxr bilan aytgan so'zlari jaranglayverdi. «Biz o'zbekcha gaplashamiz!»

Saida ZOKIROVA.

«SOS - O'zbekiston bolalar mahallasi»dagi turli-tuman millat farzandlari hamma-hammasi o'zbek tilida bemalol gaplashishlarini aytib o'tdim. Ular bilan mazza qilib gaplashganimni ham eslatganim holda misollar keltirmoqchiman.

Mahallaning 4-xonadonida yashayotgan 6-sinf o'quvchisi Sibko Igor ham M.Ulug'bek tumanidagi 49- maktabning rus sinfida o'qiydi. Boshqa millatdagi bolalar ham aynan shu maktabning rus sinfida tahsil olishadi. Lekin mahalla, ko'cha-ko'yda, muomalada ishlatadiganlari faqat o'zbek tili. «Men,- deydi Igor, - axir o'zbek oilada katta bo'layapman,

y o n - atrofdagilarning ko'plari o'zbek va qolaversa,

men O'zbekistondanman-ku! Shu yurt bolasiman. Nimaga endi hammadan ajralib, boshqacha tilda gaplashish kerak ekan?»

Yana uning ukasi bo'lgan Sasha Smikovni ham gapga solaman.

-Nechanchi sinfda o'qiysan?

-Uchinchi «D» da.

-Qaysi fanlarni yaxshi ko'rasan?

-Matematika, o'zbek tili. Doim shulardan «yaxshi» baho olaman.

-Bu tilni kim o'rgatgan?

-O'zim o'rganganman. Eshitib, qiziqib.

-Maktabda qaysi tilda gaplashasan?

-O'zim rus sinfida o'qiyman.

Shuning uchun darslarda faqat ruscha gaplashamiz. Tanaffus vaqtlarida

bo'lsa, o'rtoqlarim bilan o'zbekcha gaplashib ketaveraman. Bilasizmi, sinfimdagi bir xil o'zbek bo'lmagan bolalar ham o'zbekchada gaplashishimga havaslari kelib: «Bizga ham o'rgatgin», deyishgan. Ularga ham tushuntirib turaman.

Navbatdagi suhbatdoshim esa o'zlarini Paplauxina Dasha deb tanitdilar. Gaplari o'zimizniki.



O'ZBEKCHA GAPLASHAMIZ...

BIRINCHI MANZARA

Feruzni bolaligidan bilaman. Boshqa fanlarni «3» bahoga o'zlashtirsa-da, jismoniy tarbiya va mehnat ta'limi darsidan baholari «a'lo» edi. Maktabda o'tkaziladigan barcha sport musobaqalarining eng faol qatnashchisi bo'lardi. Deraza yoniga o'tirib olib, jismoniy tarbiya o'qituvchisining dars o'tish jarayonini diqqat bilan kuzatib

o'tirardi. Sinfdozlari bilan birgalikda futbol jamoasi ham tuzib

olgan. Sinflararo futbol musobaqalarida u hakamlilik qilardi. Hatto darslardan qochib bo'lsa ham mahallalararo musobaqalarda qatnashib yurardi.

Bir kuni darsga kelmagan Feruzni ustoz qidirib uyiga boribdi. Xonasiga kirib, hangu-mang bo'lib qolibdi. Devorlarga ilingan futbolchilarning rang-barang suratlarini, turli hajmdagi futbol to'plari, diagrammalarni tomosha qilardi. Bir narsani-Feruz faqat futbol uchun yaralganini anglab yetibdi. Ota-onasi, ustozlari bilan maslahatlashib, 9 - sinfdan so'ng sport maktabiga o'tkazib yuborishibdi.

IKKINCHI MANZARA

Ahmadjon qishloqda yashaydi.

Otasi huquqshunos. Onasi iqtisodchi. Ular ishga ketgach, Ahmadjon bobo va buvisi bilan uyda qoladi. Hovlida kattagina polizlari, uying orqa tarafida mo'jazgina bog'lari bor. Bobo erta-yu kech bog'idan chiqmaydi. Ahmadjon esa bobosining eng yaqin yordamchisi. 5-sinfda o'qiyotgandayoq payvandlash, issiqxonada ishlash, qishki pomidor va bodring navlarini parvarish qilishni mustaqil eplardi. Daraxtlarni parvarishlash, mevalarni hasharotlardan saqlash sirlarini ham zo'r qiziqish va havas bilan o'rganardi. Ahmadjon voyaga yetgan sari ota-onasining uni o'qimishli qilish, biror rahbar lavozimlarida ko'rishga bo'lgan ishtiyoqlari yanada

alangalanib borardi. Otasi u bilan maslahatlashmay, qo'shimcha darslar o'tish uchun o'qituvchilar topib, deyarli har kuni mashg'ulotlar bilan band qilib qo'ydi. Uning kelajakda huquqshunos bo'lishi lozimligini qulog'iga quya boshladi. Natijada, Ahmadjon sevimli polizi va bog'idan uzoqlasha bordi. Bu holdan u juda ranjir, lekin otasining gapini ikki qilmaslik uchun mashg'ulotlarga qatnardi. Shunda uning xayoliga ajoyib bir fikr keldi. Har tong barvaqt uyg'onib, bog'iga boradigan odat chiqardi. Daraxt taglarini yumshatib, ortiqcha shox-shabbalarni tekislardi, gulzordagi gullarni sug'orar, ularni tomosha qilib zavqlanardi. Tarix, adabiyot, huquq kabi fanlarni o'rganishdan ko'ra bog'bonlik va dehqonchilik uning yuragiga yaqinroqdek edi. Bog'dagi har bir daraxt, yaproq bilan xuddi o'z tengdoshi-la gaplashgandek suhbatlashardi...



Kim bo'lsam ekan?

Shunday kunlarning birida bobosi betob bo'lib, to'shakka yotib qoldi. Bog' va poliz qarovsiz qoldi. Shunda Ahmadjon belini mahkam bog'lab, bobo ishini davom ettirishga kirishdi. Kuz fasli bo'lgani uchun issiqxonaga ishlov berib, sabzavot ko'chatlarini ekdi, ba'zi gullarni ko'chirdi. Bog'dagi mevalarni terib, quritish, daraxt shoxlarini tartibga solish ishlari ham o'ziga qolib ketdi. Lekin Ahmadjon hecham nolimadi, yumushlarini bajonidil

bajarib yuraverdi. Qishning o'rtalarida bobosi olamdan o'tdi. Boboning

Bizga ma'lumki, yer yuzida 50.000 dan ziyod kasb bo'lib, ularning bari inson manfaatlari uchun xizmat qiladi. Har bir kasbning o'z mashaqqati, sir-asrori va gashiti bo'ladi. Ulardan birini tanlab, jamiyatimiz uchun kerakli odam bo'lish har bir insonning orzusi.

Aziz bolajonlarim, kelajakda to'g'ri kasb tanlash inson hayotida shunchalik muhim ahamiyatga egaki, bu yo'lda aslo xato qilib bo'lmaydi. O'z qiziqishingiz, qobiliyat va iqtidoringizga qarab kasb tanlang. Aytaylik, siz mehribon va dilkash, bilimdon va zukko ustozingizdek bo'lishni orzulayapsiz. O'qituvchilik - eng sharaflari va zahmatli kasb. Ularni inson ruhining me'moriga qiyoslash mumkin. Bolalarni chin dildan sevadigan, ularning erkliklari-yu injiqliklarini yaxshilik bilan qabul qila oladigan insongina o'qituvchi bo'la oladi. U har bir bola ruhiyatiga kira olishi, qalb oynasini ko'ra bilishi lozim. Bu kasbni shunchaki havas qilib yoki ota-onaning xohish-istagi bilan egallash xatodir. Shu kasbga to'g'ri keladigan iqtidor shakllangandagina, sizga omad kulib boqadi. Quyida o'zim guvohi bo'lgan o'quvchilarning ruhiyatiga va o'qituvchining mahoratiga taalluqli bo'lgan uch xil manzarani keltirib o'tmoqchiman:

xotirasi uchun qilingan exon dasturxonini Ahmadjon issiqxonada yetishtirgan pomidor va bodringlar bezab turdi...

Maktabni tugatgach, hujjatlarini Toshkent yuridik oliygohiga topshirgan Ahmadjonning omadi chopmadi, o'qishga kira olmadi. Bundan ota-onasi qanchalar kuyunishgan bo'lsa, Ahmadjonning o'zi shuncha suyundi. Chunki uni bobosidan qolgan bog'i va polizi intizorlik bilan «kutishayotgandi-da». Toshkentdan qaytib qiyimlarini almashtirishga ham sabri chidamay, bog'iga otlangan Ahmadjonni kuzatib turgan dadasi o'z xatosini tushunib yetdi.

Keyinchalik Ahmadjon Qishloq xo'jalik oliygohini muvaffaqiyatli tamomlab, qishlog'iga eng yaxshi agronom bo'lib qaytdi.

UCHINCHI MANZARA

Komila oilada yakka-yu yagona qiz. Uch o'g'ildan so'ng tug'ilgan qizaloqni yeru ko'kka ishonishmasdi. Uni hatto bog'chaga ham berishmadi.

Bir kuni unga jajjigina doira sovg'a qilishdi. Bobosi doira chalar, qizcha esa raqsga tushardi. Oiladagi tantanalar, o'tirishlar jajji Komilaning xirromlarisiz o'tmasdi. «Malika Ahmedovadek raqqosa bo'laman», der edi u doim. Maktabida bo'lib o'tgan «Alifbe bayrami»da u ilk bor sahnaga chiqdi. Ustozlari-yu tengdoshlari uni olqishlarga «ko'mib tashlashdi».

Har bir kishi kasb-korini, Mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya. Olmog'i va yaxshi xulq atvor, Fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak.

A.N. FAROBIY

Qizchadagi iste'dodni o'z vaqtida payqagan musiqa o'qituvchisi uni «Yosh havaskorlar» to'garagiga a'zo qilib oldi. Yillar o'tib, Komila tuman, viloyat tanlovlarida o'z ishtiroki bilan tanila bordi.

Bir yili Alisher.Navoiy tavalludiga bag'ishlangan kechada «Munajat»ga raqsga tushgan qizini ko'rib, onasining biroz jahli chiqdi. Bo'yi ancha cho'zilib qolgan qizining ko'pchilik orasida muqom qilishi biroz g'ashini ham keltirdi. Komilani yoniga chaqirib, «urug'-aymog'imizdan san'atkor chiqmagan, sen ham raqqosa bo'lmaysan. Qaytib raqs tushganingni ko'rmay. Endi katta qiz bo'lib qolding, uyat bo'ladi», deya koyib berdi. Bu gaplardan Komilaning dili og'ridi. Kamgap, odamovi bo'lib qoldi. O'zlashtirishi ham ancha pasayib ketdi. 9-sinfni tamomlagan Komilaning hujjatlarini Tibbiyot bilim yurtiga topshirildi. Oppoq xalat unga chunonam yarashgan ediki, asti qo'yaverasiz. Paxta mavsumida nishonlangan dugonasining tug'ilgan kunida «Bari gal»ga raqsga tushgan Komilaning nomi tillarga tushdi. Shu-shu hech bir tantana uning ishtirokisiz, jozibali raqslarisiz o'tmaydigan bo'ldi...

Bilim yurtini tamomlagach, ancha vaqtgacha sohasi bo'yicha ish topolmay yurdi. Qalbidagi san'atga bo'lgan ishtiyoqi uni tuman «Bolalar va o'smirlar markazi»ga yetakladi. Hozirda Komilaxon «Yosh raqqosalar» to'garagining mohir rahbari. Uning shogirdlari - jajji qizaloqlarning chiqishlarini ko'rgan Komilaxonning


onasi qizining kasbidan mamnunligini yashira olmaydi...

Jaloliddin Rumi shunday yozadi: «O'zing bilmagan, tushunmagan ishga kirishma. Biror ishga kirishmoqchi bo'lsang, aqlli, tajribali kishi bilan kengash, uning maslahatlariga quloq tut, so'ngra ish boshla. Shunday qilsang, o'zingni xatolardan saqlaysan. Baxtli bo'lish - bu kasbini sevish va rohatini mehnatda ko'rishdir».

Aziz bolajonlarim, shoirning bu nasihatlariga siz ham amal qilsangiz kam bo'lmaysiz. Zero, baxt-saodat izlasangiz topolmaysiz, zimmangizdagi insoniy fazilatlarini ado eting, baxtning o'zi sizni qidirib keladi.

G. HIKMATULLAYEVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tuman Xalq ta'limi bo'limi uslubiyotchisi.



Yaqinda xizmat yuzasidan Buxoroda bo'lib qaytdim. Qayerda bo'lmay, samimiy, ochiqko'ngil insonlar davrasida bo'ldim. Ayniqsa, bilimdonu zukko bolajonlar bilan hamsuhbat bo'lib, qiziqishu intilishlari bilan o'rtoqlashib, ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Razzoq SHUKUROV bilan qilgan suhbatimiz ham aynan bolajonlar xususida bo'ldi:

Feruz Qobilovlar shular jumlasidandir.

Bolajonlarimizning o'qimishli, bilimdonliklari bilangina emas, mohir sportchi ekanliklari bilan ham haqli ravishda faxrlana olamiz. Yaqinda Yaponiyada o'tkazilgan jahon olimpiadasida ishtirok etgan umidli sportchilarimiz Aruzbek Jo'raqulov bronza, Doniyor Nafasov kumush medaliga sazovor bo'lib qaytishdi. «Umid nihollari - 2003» sport musobaqalarining final bosqichida ham viloyatimiz maktab o'quvchilari

Risqiyevni tanirdik, xolos. Hozir esa kimda iqtidor bo'lsa, uning uchun barcha imkoniyatlar muhayyo. Ammo bu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan, fursatni boy bermay, o'qib-o'rganayotgan yoshlarimiz bilan bir qatorda, uning qadriga yetmayotganlari ham borligi bizni ranjitadi. Chunki farzandlarimiz kelajagi, ertangi kuni uchun

-Viloyatimizda iqtidorli, bilimga intiluvchan yoshlar juda ko'p,- dedi ustoz. - Ular b i z n i n g


«O'ZIMNING O'G'IL-QIZLARIM»

Bularning faxrimiz, iftixorimizdirlar. bari mustaqilligimiz sharofatidir. Istiqoldan avval o'zbek farzandlari chet ellarga borib o'qish imkoniyatiga egamidilar?

Yo'q, albatta! Bugungi kunda esa respublikamizning turli viloyatlaridan, shaharu qishloqlaridan kelgan o'g'il-qizlar chet ellarda tahsil olishyapti. 2003-2004 yillarda AKSELS g'olibi bo'lib, AQShga o'qishga ketgan o'quvchilar orasida viloyatimiz vakillari ham borligi bizni juda quvontiradi. Buxoro shahridagi 37-iqtidorli bolalar maktabining 11-sinf o'quvchisi Olga Tegay, Go'zal Yusupova, Nuriya Metgalimova, 8-iqtidorli bolalar maktabining 11-sinf o'quvchisi Anna Smirnova, G'ijduvon tumaniga qarashli 2-iqtidorli bolalar maktabining 11-sinf o'quvchisi Aleksandr Potashev, To'qimachilik tumaniga qarashli 17-iqtidorli bolalar maktabining 11-sinf o'quvchisi Islom Hamroyev, shu tumanga qarashli 34-iqtidorli bolalar maktabining 11-sinf o'quvchisi

Fayzulla Xo'jayev nomli 26 - o'quvchisi Amir Garifulin yengil atletika bo'yicha oltin va kumush, Buxoro shahridagi 19-maktab o'quvchisi Ra'no

mas'ulmiz. Ularni to'g'ri yo'lga solish, bilim olishga, hunar o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantirish bizning burchimizdir. Bu borada amalga oshirayotgan ishlarimiz natijasini Gulmira Komilova, O'tkir Hamroyev, Otabek Mo'minov, To'xtamurod Jumayev, Tatyana Smirnova, Qalandar Ergashev, Said Rahimov, Farhod Majidov, Iqbol Usmonova singari o'quvchilarimizning turli fan olimpiadalarida faxrli o'rnlarni egallab qaytishganini ko'rib, quvonamiz. 16-maktabning 9 - sinf o'quvchisi Firuz Rabiyeuning viloyat



Viloyat hokimi stipendiyasi sohibi Firuz Rabiye.

hokimi stipendiyasini olishi, boshimizni ko'kka yetkazdi.

Hozirgi kunda viloyatimizda 25 ta sport maktabi, 8 ta sport yo'nalishidagi maktab-internat faoliyat ko'rsatyapti. O'quvchilarimizni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 22 ta maktabga suv quvurlari o'tkazdik. Ikki yil ichida maktablarimizga 32 ta «Bor» mashinasi, 33 ta stomtologik kreslo, 192 ta tarozi, 438 ta tanometr, 361 ta fonedoskop yetkazib berildi. 324 ta maktab kompyuterlarga ega bo'ldi. 11 ta sport zali qurib, ishga tushirildi...

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...


Maqsadimiz, bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

Muhammedova bitta oltin, To'qimachilik tumanidagi 8-maktab o'quvchisi Yeseniya Chernova badiiy gimnastika bo'yicha bitta oltin, shu maktab o'quvchisi Galina G'ulomova belbog'li kurash bo'yicha bronza, Jondor tumanidagi 10-maktab o'quvchisi Shuhrat Boboyev milliy kurash bo'yicha kumush medali sohibi bo'lishgan. Eh-he, bu ro'yaxatimizni yana qancha davom ettirishimiz mumkin...

Ilgarilari O'zbekistonimizda ham qanchadan-qancha mohir sportchilar yetishib chiqqanu, ularning mehnatlari, nomlari yuzaga chiqmagan. Nomlarini hech kim tanimagan. Faqat birgina sportchi - boks bo'yicha jahon chempioni Rufat

Razzoq akaning kuyunchaklik bilan aytgan gaplarini tinglar ekanmiz, viloyatdagi 539 ta maktabda tahsil olayotgan 26749 nafar o'quvchiga ma'lum ma'noda havas qildim. Chunki bu o'g'il-qizlar ortida ularni o'z farzandlarim deb biladigan, ular uchun qayg'uradigan, ertangi kuni, kelajagi uchun jon kuydiradigan insonlar turishibdi.

O'ktam HAKIMALI suhbatlashdi.



Termiz shahrining eng xushmanzara joylaridan birida «Marvarid» nomli bolalar bog'chasi joylashgan. San'atga yo'naltirilgan mazkur bog'cha kichkintoylarining har bir kunlari maroqli, mazmunli o'tadi. Chunki bog'chada deyarli har kuni biron bir tadbir, tantana uyushtiriladi.

Yaqinda ana shunday tadbirlardan yana biri - «Ona tilim - qalbmida yonib turgan chirog'im» bo'lib o'tdi. Tadbirda Termiz shahri, Muzrabod, Uzun, Boysun, Denov va Sho'rcchi tumanlaridan kelgan rus, ukrain, arman, koreys singari turli millat farzandlari ishtirok etishdi. Ular o'zbek tilida biyron-biyron so'zlashdi, she'rlar, tez aytishlar, xalq maqollarini yod olishdi.

...Juda qadim zamonda bir boy mamlakat bo'lgan ekan. Uning xalqi to'q, sarovon yashar ekan. Kunlardan bir kuni yovuz dev kelib, shu o'lkaning baxt qushini o'g'irlab ketibdi. Negaki, yovuz kuchlar baxtli yashayotgan insonlarni ko'rolmas ekanlar. Mamlakatning mard o'g'lonlari yurt baxti, ozodligi

ISTIQLOL NE'MATI

uchun safarga o'tlanishibdi. Ular devlar, o'rgimchaklar bilan jang qilib, g'olib chiqishibdi.

O'z tilim - o'zbek tilim

X u m o qushini ozod qilib, yana baxtiyor y a s h a y boshlabdilar...

Ushbu sahna ko'rinishini Termiz shahridagi «Chinnigul» nomli 14 - b o l a l a r bog'chasining turli millatga mansub



kichkintoylari zo'r mahorat bilan ijro etishdi. Til bayramida Muzrabod tumanidagi «Nargis», Sho'rcchi tumanidagi «Kichkintoy», Uzun tumanidagi «Havas» nomli maktabgacha tarbiya muassasalarida turli millat vakillarining farzandlariga o'zbek tili mukammal o'rgatilayotgani alohida ta'kidlab o'tildi.

Ayniqsa, Boysun tumanidagi «Shodlik» nomli bolalar bog'chasining folklor dastasi ijrosidagi sho'x, dilrabo kuy-qo'shiqlar barchaga manzur bo'ldi. Bolajonlar sof o'zbek tilida o'z mahallalari, oilalari, bog'chalari haqida to'lib-toshib hikoya qilishdi.


Viloyat hokimligi hamda Xalq Ta'limi boshqarmasining «Faxriy yorliq»lari va qimmatbaho sovg'alarini olgan bolajonlar ko'zidagi quvonchni bir ko'rsangiz edi. Bu baxtdan bolalikning oliy taxtidan minnatdorchilik quvonchi - istiqlol ne'matidir.

Zamira TO'LAGANOVA, Surxondaryo viloyati.

Har safar Samarqandga borsam o'zim o'qigan maktabim, ustozlarimni ko'rib o'taman. Ularning shirin suhbatlari ko'nglimni tog'dek ko'taradi. Kuni kecha yana qadrdon dargohimda bo'lib, muallimlar bilan dildan suhbatlashdim. Ular maktab hayotidagi dolzarb mavzular xususida, yutuq-kamchiliklar borasida gapirishib, menga nigohlari tiyran boqib turuvchi jajjigina qizaloqni tanishtirishdi. Muattar ko'pdan buyon she'rlar mashq qilarkan. Iymanibgina turgan qizaloq yozgan she'rlarini shunday maroq bilan o'qidi-ki, yurak-yuragimdan quvonib ketdim. Uning satrlarida yoshlik orzulari, dehqon dalalari, baxtiyor bolalik, vatan muhabbati kabi tuyg'ular g'oyat nafis tarannum etilgan. U mayingina jilmayib: «Men albatta yaxshi o'qiyman, shoira bo'laman!» deydi. Men bu ishonch Muattarning doimiy yo'ldoshi bo'lib qolishiga tilakdoshman.


Oygul SUYUNDIQOVA, shoira.

MUATTARNING OYDAN ORZULARI



PAXTA

Dalada oppoq paxta,
Ochilib turar.
Quyosh unga termulib,
Jilmayib kular.
Dehqon bobom mehnati,
Paxta makonim.
Oftobda ming tovlangan,
Shodlikka konim.
Seni ko'rib dalada,
Quvonar ko'zim.



TABIAT

Tabiatni asraylik,
Doimo bizlar,
Gul, ko'chatlar ekaylik,
O'g'ilu qizlar.
Go'zallikka intilar,
Hattoki qushlar,
Musaffolik, soflikni,
Insonlar xushlar.

Muattar BARATOVA,
Samarqand viloyati,
Poyariq tumanidagi Orzu Mahmudov nomli
1-umumta'lim maktabining 5- «D» sinf
o'quvchisi.



OLIS YULDUZNI KO'ZLAB...

(Zamonaviy ertak)

Juda qadim o'tgan zamonda, yaxshi va yomon, oq va qora birga yashaydigan Turonzamin degan go'zal va maftunkor bir o'lka bor ekan. Bu o'lkaning odamlari juda saxiy, sabr-qanoatli ekanlar.

Bir kuni bu o'lkaga yovuz bosqinchi hujum qilindi. Turonzaminning mard va jasur o'g'lonlari hayotlarini tikib, yurt himoyasiga o'tlanishibdi. Chunki ular o'z elini yurakdan sevar ekanlar-da. Ayovsiz jang uzoq davom etibdi. Oxiri Turonzamin farzandlari yovni yengishibdi. Lekin necha-necha alpomat o'g'lonlar qurbon bo'lishibdi...

Kunlardan bir kun farzandlari dog'ida o'rtanib o'tirgan Turonzamin olislarga boqib, juda yorqin porlayotgan bir yulduzni ko'rib qolibdi. O'zining jondan sevgan bir ajib makonini ana shu yulduzni olib kelish uchun yuboribdi. Bu yo'lning kutilmagan mushkulotlarga boyligini ham aytib o'tibdi. Bu narsa uni cho'chita olmabdi. Farzandlari ziyoli, iymonu-e'tiqodli ajib makon olisdagi yorqin yulduzni ko'zlab, yo'lga o'tlanibdi. Shu payt uning yo'lini bahaybat, qip-qizil ajdaho to'sib chiqibdi. U shu darajada dahshatli, vahimani ekanki, kattakon og'zidan alvon rangli olov purkab, yo'lida uchragan narsani kuydirib, kul qilib ketaveribdi. Qanchalik qudratli bo'lmasin, ajib makonning mard o'g'lonlari qaddini, e'tiqodini buka olmabdi. Ular qizil ajdahoni yengishibdi.

Ajib makonning jasoratiga qoyil qolgan Turonzamin olis osmondagi eng yorqin yulduz- Istiqloq yulduzini unga sovg'a qilibdi.

Ana shu ajib makon bizning sevimli diyorumiz O'ZBEKISTON ekan.

Salima RO'ZIYEVA,

Buxoro viloyati, Qorovulbozor tumanidagi 3 - o'rta maktabning 10 - sinf
o'quvchisi.

YO'LDAGI PUL

(Hikoya)

Avvallari oyim «Yo'ldan pul topib olsang, uch marta «Kimniki?», deb so'ragin» deb tayinlardilar. Aks holda u o'n barobar bo'lib chiqib ketadi, degan gaplariga unchalik e'tibor bermasdim. Oyim juda irimchilar-da, har xil gaplarga ishonaveradilar, deb o'yildim. Bir voqea sabab bo'ldi-yu, bu gapning nechog'li to'g'riligiga amin bo'ldim.

Bir kuni katta opamnikidan yo'l yoqalab kelayotgandim. Qarasam, yo'lning chetida 200 so'm pul yotibdi. Oyimning gaplari yodimda bo'lsa ham uni olib, cho'ntagimga solib qo'ydim. Shu payt oldimdan qo'shni mahallada yashaydigan Mavjuda ismli qiz chiqib qoldi. Uning yerdan ko'zini uzmay kelayotganidan pulning egasi ekanligini angladim. Biz Mavjuda bilan hecham chiqisholmasdik. Shunday bo'lsa-da, u menga najot bilan boqib, 200 so'm pulimni yo'qotib qo'ydim, ko'rmadingmi, deb so'radi. Men hech ikkilanmay, yo'q, deya javob berdim. Uyga kelsam oyim meni kutib turgan ekanlar. Qo'limga 2000 so'm pul berib, uch ko'cha naridagi dugonalariga tashlab kelishimni tayinladilar. Pulni cho'ntagimga solib, ortimga qaytdim. Halima opalarnikiga yetib borib cho'ntagimni kavladim. Qarasam, pul yo'q. Noiloj ortimga qaytdim. Oyimning gaplari xayolimdan nari ketmasdi. Boshimni quyi egib uyga kirib keldim.

-Oyi, pulingizni yo'qotib qo'ydim, -deya yo'ldan topib olgan pulimnigina uzatdim. Bo'lgan voqeani oyimga aytolmadim. Axir qay yuz bilan aytaman...

Bibimaryam XO'JANOVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi
57 - maktabning 10 - sinf o'quvchisi.



«JOZIBADOR TABASSUM» YANA SIZ BILAN

Aziz bolajonlar, «Jozibador tabassum» dasturi bilan yaxshi tanishsiz-a? U tishlaringizni marjondek oppoq va sog'lom asrashga o'rgatadi. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi va Sog'liqni Saqlash vazirliklari hamda «Sog'lom avlod uchun» Xalqaro xayriya jamg'armasi va AQShning «Procter and Gamble» kompaniyasi hamkorligida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga mo'ljallangan o'quv-sog'lomlashtirish dasturi 1998 yil 29 iyulda imzolangan edi. O'tgan davrda dastur muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Yaqinda poytaxtimizdagi «Padisson SAS» mehmonxonasida ushbu shartnomani 2003-2008 yillargacha uzaytirishga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi. 2 - sinf o'quvchilariga



mo'ljallangan «Jozibador tabassum» dasturida o'tgan besh yil ichida 430 ming o'quvchi qatnashdi. O'smir qizlarimizning balog'at yoshida bo'ladigan o'zgarishlarni tushunib yetishlariga yordam beradigan ikkinchi dastur esa «Balog'at davri» deb ataladi. Ushbu dastur asosida o'tgan besh yil ichida 172 ming nafar 8 - sinf qizlariga qo'llanmalar tarqatilib, tegishli maslahatlar berildi.

Avvaliga faqat poytaxtimizdagina o'tkazilgan bunday tadbirlar keyinchalik viloyatlarga ham ko'chdi. Kelajakda respublikamizdagi barcha o'smir qizlar bu dastur bilan tanishtirilishi rejalashtirilmoqda.

Javlon SA'DULLAYEV.

Bo'sh o'tirmay bosh qotir!

REBUS



+ LON = QOPLON



+ QOP = QO'LQOP

Ruksora JALILOVA,
poytaxtimizdagi 173-maktabning
8- «A» sinf o'quvchisi.

Aziz tengdoshlarim, «Bulbulcha» deganda ko'z oldingizga berishdi, qarsaklar bilan olqishlashdi. nimalar keladi? «Quvnoq qo'shiq kuylab, sho'x raqsga tushayotgan o'g'il-qizlar» deysizmi, ha, barakalla. Yana umrini san'at yo'liga baxshida qilib kelayotgan fidoiy inson - Shermat Yormatovning siymosi namoyon bo'ladi, to'g'rimi?..

SHERMAT BOBO, AYYOM MUBORAKI!

Shermat bobo
Moskvadagi

Qutlov



Men ham ana shu dasta a'zosiman, ustozlarim - O'zbekiston Xalq artisti Shermat bobo Yormatov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Dilbar opa Abdullayeva va Noila Ortiqovalardan san'at sirlarini o'rganib kelyapman. Yaqinda sevimli ustozimiz Shermat boboning tavallud ayyomlarini nishonladik. Bobojonimni ayyom bilan muborakbod etib, suhbatga tortdim. «Bulbulcha» haqida bilmaganlarimni bilib, sizlar bilan ham o'rtoqlashgim keldi:

Shermat bobo 1970 yilda tashkil qilingan «Bulbulcha» bolalar dastasiga rahbarlik qilib kelayotganlariga ham mana 33 yil bo'libdi. Shu yillar mobaynida juda ko'plab shogirdlar yetishtirdilar. Sevara Nazarxon, Ilhom Farmonov, Dilfuza Rahimova, Anvar Sanayev, Nargiza Mirzayeva, Mukarrama Sultonova, Isroil Saidumarov singari sevimli san'atkorlarimiz ham Shermat bobomizning shogirdlari ekanlar.

Aytishlaricha, allaqanday majlisda san'at ilg'orlaridan bir nechtasi «O'zbeklar hech qachon ikki ovozda (ya'ni, ko'p ovozda) kuylay olmaydi», degan fikrni bildirishganda, Shermat bobom o'rnidan dast turib, to'rt ovozda qo'shiq kuylab, bolajonlarni ham kuylatib bergan ekanlar.

«Bulbulcha» juda ko'p yurtlarni kezdi. Boltiqbo'yi respublikasining barcha qo'shiq bayramlarida faol ishtirok etdi. Turkiyada bo'lib o'tgan «Bolalar bayrami»da, Yugoslaviyada bo'lib o'tgan «Oltin bulbulcha» Xalqaro festivalida qatnashgan dasta ishtirokchilari mahoratiga chet ellik tengdoshlari ham tan

«Komerton» Xalqaro xor muammolari bo'yicha munozara klubining doimiy a'zosi sifatida «O'zbekistonda qo'shiq san'atining rivojlanishi» haqida doimo axborot berib turganlar. Dastaning nomi ham ilk bor Moskvadagi katta sahnada e'lon qilingan ekan.

1997 yilda bobomizning samarali mehnatlari munosib taqdirlanib, «O'zbekiston xalq artisti» degan unvonga sazovor bo'lganlarida, unvonni xuddi biz olgandek juda quvongandik. Quvonmay bo'ladimi axir, ustozimiz muvaffaqiyati bizning ham yutug'imiz-da!

Yaqinda O'zbekiston Konservatoriyasida bo'lib o'tadigan

«Davr sadosi» festivalida «Bulbulcha»miz hisobot konsertini beradi. Biz bu konsertga astoydil hozirlik ko'ryapmiz. Tomoshamizga siz ham keling, afsuslanmaysiz...

-Qani edi bizning yurtimizda ham jahon festivallari o'tkazilsa,-deya niyat qiladilar Shermat bobo.-Butun jahondan kelgan tengdoshlari qarshisida «Bulbulcha»miz

a'zolari bor mahoratlarini namoyon etishsa. Ular nafaqat san'atimizga, kundan-kun ko'rkamlashib borayotgan diyorimiz chiroyiga ham maftun bo'lib qolishardi...

Men juda baxtli qizaloqman. Shunday ajoyib inson - Shermat bobomning shogirdlaridan biri ekanligim bilan faxrlanaman. Kelgusida «Sitara mening shogirdim» deya faxrlanib yurishlari uchun hozirdanoq astoydil harakat qilyapman.

Sitora AVEZOVA,

326 - Xalq amaliy san'ati maktab-majmuasining 6 - «A» sinf o'quvchisi.

SIZNI QUTLAR SITORA

«Bulbulcha»ning bobosi,
Sho'xchan qo'shiq, navosi,
San'atning fidoiysi,
Shermat bobom, bor bo'ling!
Bag'ri keng, saxiy inson,
Tinmay izlanar har on,
Mehnat-la topdi u shon,
Shermat bobo, bor bo'ling!
Notalar tilin bilgan,
Shirin so'z tushmas tildan,
Sitara qutlar dildan,
Shermat bobom, bor bo'ling!

«Xat tashuvchi quyoncha»

rasmini Farg'ona viloyati, Beshariq tumani, Yakkatut qishlog'ida yashovchi Rustamxon JABBORXO'JAYEV chizibdi.



TUVAKDAGI GUL

Bir tuvagim bor edi,
Tagi juda tor edi.
Ekkan edim unga gul,
Bir kunda so'ldi butkul.
Bir ozuqani olib,
Barglari qurib qolib.
So'radi mendan najot,
-Ozuqa ber, odamzot!
Nega meni xor etding,
Keng uyimni tor etding?
Men ham erkka tashnaman,



Nur, ziyoga tashnaman.
Bo'lardi-ku yayrasam,
Atirguldandim nimam kam...
Meni ko'chirgil boqqa,
Ona zamin, tuproqqa.
Qoldirmay deb ozorga,
Ekdim uni gulzorga.
Nozik ko'ngliga qarab,
Sug'ordim jo'yak tarab.
Gulim bo'ldi minnatdor,
Atrofga sochdi ufor.

Muqaddas HUSANOVA,
Shayxontohur tumanidagi Xotin-qizlar kolleji, 2 - bosqich talabasi.

YURTIM TIMSOLI

Yurtim, moviy osmonlaring bor,
Gul bog'laring, bo'stonlaring bor,
Alpomishu Go'ro'g'li kabi,
Ajjib, ajib dostonlaring bor.
Farzandlaring mehnatin e'zoz,
Etguvchi shon, nishonlaring bor.
Qalbda g'urur hissini uyg'otar,
Iftixorli timsollaring bor.

Maftuna BADALOVA,

Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumanidagi 40 - umumiy o'rta ta'lim maktabining 5 - «A» sinf o'quvchisi.

OSHPAZ MUSHUK

Bir kun baroq mushukvoy,
Qorin g'amini yebdi.
Borib sichqon iniga,
Muloyimgina debdi:
-Hoy sichqonvoy, sichqonvoy,
Chiqaqolgin bu yoqqa.
O'ynasak oshpaz, nonvoy,
To'ydirardim pishloqqa.
Sodda sichqonvoy ko'ndi,
Yugurib chiqdi indan.
Mushuk-chi, oshpaz bo'ldi,
Pichoq chiqarib qindan.
Oshpaz mushuk sichqonni,
Tezda qozonga soldi.
Qozon kabob bo'lganin,
O'zi ham bilmay qoldi.



Zulayho XOLNAZAROVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 26 - maktabning 10 - sinf o'quvchisi.

Osa yuring - olin bo'ling
TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

Bosh muharrir
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«O'zbekiston»
nashriyoti matbaa
bazasida chop etildi.
Adadi - 10661
Korxonalar manzili:
700129,
Toshkent,
Navoiy
ko'chasi, 30.
Buyurtma № 1 - 15
Gazetani
Muharrama
PIRMATOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza
ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./faks:
(99871) 144-37-24